

**QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-soni)**



**FILOLOGIYA
PHILOLOGY**

**“FUNUN UL-BALOG‘A” – TURKIY POETIKAGA DOIR ILK NAZARIY
MANBA**

Shohista Mulloqulova
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya: ushbu maqolada temuriylar davrida yaratilgan, adabiyotshunoslik tarixida poetika masalalariga diqqat qaratgan ilk turkiy risola – Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-baloga” asari hamda uning yagona qo‘lyozma nusxasini o‘rgangan amerikalik olimning qarashlari haqida so‘z boradi..

Kalit so‘zlar: “*Funun ul-baloga*”, *Devin de Uis, qo‘lyozma, fann, ilmi badi’, aruz, qofiya.*

Аннотация: в данной статье говорится о взглядах американского ученого, изучавшего первый в истории литературоведения турецкий трактат по поэтике - «Фунун уль-Балога» шейха Ахмада Тарази, созданный в эпоху Тимуридов, и единственный его рукописный экземпляр.

Ключевые слова: «Фунун уль-балога», Девин де Вис, рукопись, фанн, илми бади, аруз, рифма.

Annotation: this article talks about the views of the American scholar who studied the first Turkish treatise on poetics in the history of literary studies – “*Funun ul-Balogha*” by Sheikh Ahmad Tarazi, created during the Timurid era, and the only manuscript copy of it.

Keywords: “*Funun ul-baloga*”, *Devin de Wis, manuscript, fann, ilmi badi’, aruz, rhyme.*

XIV asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyoda mo‘g‘ullar hukmronligi tugatilib, uning o‘rnida temuriylar davlatining yuzaga kelishi – bu hududda keyinchalik o‘zbek nomini olgan turkiy xalqlar tarixida, ularning siyosiy-iqtisodiy, madaniy birlashuvida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu davrda kelib, ilm-fan bilan bir qatorda adabiyot ham yuksak pog‘onaga ko‘tarildi. Ilm ahliga e’tiborning kuchayishi o‘laroq, adabiy jarayon ham jadallahashdi. Ayniqsa, poetika ilmiga oid risolalar forsiy til bilan birga turkiyda ham yaratildi.

Temuriylar davrida yaratilgan va she’rshunoslikka bag‘ishlangan Markaziy Osiyo xalqlarining XV asrdagi adabiy-madaniy taraqqiyoti haqida ma’lumot beruvchi muhim manbalardan biri Ahmad Taroziyning “Funun ul-baloga” asaridir.

AQShdagisi Indiana universiteti professori, sharqshunos olimlardan biri Devin de Uisning risola tahliliga bag‘ishlangan “The Predecessors of Nava‘i in the “Funun al-balaghah” of

Shaykh Ahmad b. Khudaydad Tarazi: a neglected source on Central Asian literary culture from the fifteenth century” (“Navoiyning salaflari Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyining asarida: XV asrdan buyon Markaziy Osiyo madaniyatshunosligida unutilgan manba”) tadqiqoti adabiyotshunoslikning noyob yodgorligi haqida muhim qarashlarni ifodalaydi⁴⁰⁵. Tadqiqot mavzusidan ko‘rinib turganidek, ushbu tadqiq ishi g‘arb olimining o‘rtasidagi Musulmon Sharqi adabiyoti va madaniyati haqidagi qarashlari hamda Shayx Ahmad Taroziyining “Funun ul-baloga” asariga bag‘ishlangan.

Devin de Uis o‘z tadqiqotida asarni temuriylar davri tarixi va madaniyatiga oid bizgacha yetib kelgan, lekin hali to‘liq o‘rganilmagan qadimgi turkiy asar sifatida baholaydi. Muallif asar muqaddimasida o‘zini “Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy, rafa’allaohu qadrahu fid-doraynkim, bu imoratning muhandisi va bu iboratning mudarrisidur” deb tanishtiradi. Taroziyining yor-u do‘satlari “Funun ul-baloga” asarini “Latoifi Taroziy” deb ham atashgan. Bu haqda Taroziy shunday deydi: “furs va turk alfozini tarkib aylab, risolaye tartib qilduk. Otini “Fununul-baloga” qo‘yduq. Va ba’zi yaronlar “Latoyifi Taroziy” ham dedilar”⁴⁰⁶. Shuningdek, asarning muqaddimasida Taroziy o‘ziga homiylik qilgan Mirzo Ulug‘bek sharafiga “shohanshoji a’zam, shahriyori a’lam, ma’dani lutf-u karam” singari cheksiz maqtovlar keltirgan. Muqaddimada muallif asarni she’r navlari, ilmi qofiya, ilni bade’, ilmi aruz, muammo ilmi tarzida besh qismdan iborat qilib yaratilganligini aytadi.

Devin de Uis tadqiqotining “The Manuscript, the Author, and the Work” (“Qo‘lyozma, muallif va ijod”) deya nomlangan faslida qo‘lyozma haqida batafsil ma’lumot beradi. Risola haqida ma’lumot, dastlab, sharqshunos olim Hermann Eze tomonidan Bodlian kutubxonasi dan Islom qo‘lyozmalari katalogining ikkinchi jildida chop etilgan. Eze asar muallifi, uning ikki xil nomlanishi hamda Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlanishi va 1225-ustunda №-127 raqami ostida saqlanishi haqida qisqa qilib aytib o‘tadi. Risolani “ritorika va metrika, she’riyatning turli sohalariga oid qiziqarli asar” deya ta’riflaydi.

1984-yil Eleazar Birnbaumning “Turkiy qo‘lyozmalar: 1960-yildan buyon ro‘yxatga olingan va ro‘yxatga olinmagan qo‘lyozmalar” asarining to‘rtinchi qismida ham ushbu qo‘lyozma haqida ma’lumot beriladi. Keyinchalik 2003-yilda Hermann Ezening katalogi asosida Gunay Kut ham risola haqida umumiyyat qilinib berilish bilan cheklanadi.

Devin de Uis qo‘lyozmaning yagona nusxasi hozirda London shahrida, Oksford universitetining Bodlian kutubxonasi da Elliott 127 raqami ostida saqlanishini yozadi. Ammo qo‘lyozma suvdan katta zarar ko‘rgan va ba’zi o‘rinlarning o‘qish qiyin va imkonsizligini (birinchi va oxirgi bir necha sahifalar zarar ko‘rgan) aytadi.

⁴⁰⁵ DeWeese D. The Predecessors of Nava'i in the “Funun al-balaghah” of shaykh Ahmad b. Khudaydad Tarazi: a neglected source on Central Asian literary culture from the fifteenth century / Journal of Turkish studies, edited by Sinasi Tekin, 2005, volume 29. – P. 73-163.

⁴⁰⁶ Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Тошкент: Ҳазина, 1996. – С.31.

Qo‘lyozma 139 sahifadan iborat bo‘lib, matn f.1b bezatilgan frontispis bilan boshlanadi. Kolofonga (f.139a) ko‘ra, qo‘lyozma Buxoroda hijriy 989, milodiy 1581-yili xattot Mir Husayn Kulangi Buxoriy tomonidan ko‘chirilgan. Professor De Uis ushbu qo‘lyozma bilan 1992-yili Indiana universitetining Ichki Osiyo ilmiy-tadqiqotlari institutida Oksford universitetining Bodlian kutubxonasi tomonidan tayyorlangan mikrofilm orqali tanishadi. Devin de Uis o‘zbek olimlari tomonidan “Funun ul-balogs‘a”ning chop etilganligini ham qayd etadi. Asarning Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlab yozilganligiga e’tibor qaratsak-da, biroq Navoiy ham, Bobur ham Taroziyi olim sifatida tilga olmaydi. Ammo Bobur “Risolai aruz” asarida Taroziy degan shoirning bir baytini keltirgan va ushbu bayt “Funun ul-balogs‘a” (1146-sahifa)da uchrashini, ammo muallif nomi keltirilmaganligini yozadi.

Sharqshunos olim tadqiqotda Taroziy nomi o‘z davrida va undan so‘ng yaratilgan manbalarda tilga olinganmikan degan savol bilan Tole’ Hiraviyning “Badoye’ ul-lug‘at”, muallifi noma’lum “Abushqa”, Mahdi Xonning “Sangloh”, Hoji Xalifaning “Kashf uz-zunnun” asarlarini ko‘rib chiqadi. Biroq ularda ham Taroziy va uning “Funun ul-balogs‘a” asari haqida ma’lumot uchramasligini ma’lum qiladi.

“De Uis Taroziyning fors hamda arab adabiyotshunosligrining bilimdoni bo‘lganligini aytib, asarda arab tilida yaratilgan “Aruzi Qistos”, “Aruzi Andalusiy” hamda fors tilida yozilgan “Me’yor ul-ash’or” asarlaridan foydalanganligi va arab, fors she’riyatidan keltirilgan iqtiboslar bunga isbot bo‘la olishini ta’kidlaydi”⁴⁰⁷. “Funun ul-balogs‘a”da keltirilgan quyidagi jumlalar ham bu qarashlarni tasdiqlaydi: “Bu havastin ko‘p nusxalarni mutolaa qildi, netokkim “Aruzi Qistos” va “Aruzi Undulusiy” va “Me’yor-ul-ash’or” va bu tariqa nusxalarning bahrlarinda ko‘p g‘avvosliq qilduq”⁴⁰⁸.

Umuman olganda, Devin de Uis tadqiqoti natijasida “Funun ul-balogs‘a” asari yozilgan davr, uning tili, qo‘lyozma nusxasi haqida qimmatli fikrlar bildirib, risolaning ilmiy qimmatini ochiqlashga harakat qiladi.

Shuningdek, o‘zbek adabiyotshunoslida “Funun ul-balogs‘a” asarining ilm ahliga e’lon qilinishida olim A. Hayitmetovning hissasi katta⁴⁰⁹. Olim risola haqidagi ilk ilmiy axborotni “Fan va turmush” jurnalining 1994-yil 1-sonida “Taroziy qomusi” nomi bilan bergen edi. Shu yilning 18-mart sonida “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida bu haqdagi ma’lumot “Shayx Ahmad Taroziy: “Funun ul-balogs‘a” nomi bilan bosilib chiqadi. Asarning 1994-yildagi yagona tabdil qilingan nashri ham A.Hayitmetov boshchiligidida amalga oshirilgan.

“Funun ul-balogs‘a” asari o‘z davridagi adabiy hayot ehtiyoji va talablari asosida yuzaga kelgan. Boisi unga qadar turkiy tilda qalam tebratuvchilar uchun tayanish mumkin bo‘lgan biror ilmiy-nazariy manba yo‘q edi. “Shayx Ahmad “Funun ul-balogs‘a” asarini qaysi shaklda

⁴⁰⁷ Д.Юсупова. Темурйилар давридаги аргазга доир рисолаларнинг киёсий таҳлили: Филол. фан. докт. ... дисс. – Т., 2019.– С.39.

⁴⁰⁸ Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балога. – Тошкент: Ҳазина, 1996. – С.31.

⁴⁰⁹ Asar yuzasidan A.Hayitmetov, H.Boltaboyev va J.Yo‘ldoshbekovning maqola va tadqiqotlari mavjud bo‘lib, ularda risolaning umumiyligi jihatlari haqida so‘z boradi.

yaratmoqchi bo‘lgani, bundan kuzatgan asosiy maqsadini ham yaxshi ifodalagan. Uningcha, burun o‘tgan adabiyotshunos olimlar adabiyot nazariyasi bo‘yicha kitob yozganlarida, ko‘pincha bir masalaga – yo she’r turlari masalasiga yoki vazn masalasiga yoki badiiy san’at masalalariga to‘xtalganlar yoki biron she’riy janr xususiyatlarini yoritib bergenlar. Shayx Ahmad esa bu sohada mukammal bir qo‘llanma yaratishni, o‘z “risola”sida nazariy masalalarining barchasini yoritib, tahlil etib berishni niyat qiladi, – toki o‘qigan kishilar nazariyadan mumkin qadar to‘la ma’lumot va foyda olsinlar”⁴¹⁰.

Taroziy o‘z davri adabiy muhitidagi kamchiliklarni anglagan holatda shunday deydi: “Ammo ko‘p kishi bu tariqada nusxa tasnif qilibturlar. Va lekin hech kimarsa nazmning tamom fununun bir yerda jam’ qilmay turur. Va bu sababdin rag‘bat havosi g‘olib bo‘lub, havas dilbari ko‘ngul pardasindin bu tariqa yuz ko‘rguzdikim, nusxaye qalamg‘a keltursakim, nasr va nazmning jame’ qavoid va aqsomig‘a mushtamil bo‘lsa, to har kim balog‘atqa moyil va fasohatqa qobil erur, foyda olsa”⁴¹¹.

“Funun ul-balogs‘a” asari an‘anaviy Allohga hamd va payg‘ambarga na‘t qismlari bilan boshlanadi. Undan keyin asarning yozilish sabablariga o‘tiladi. Muqaddima so‘ngida uning besh qismdan tarkib topganligi keltirilgan. Bu qismlar “fann” deya atalgan.

Avvalg‘i fanda she’rning aqsomin va anvo‘in sharh qilur. Mazkur qismda shayx Ahmad Taroziy she’r navlariga to‘xtalib, ularni shakl va mavzu jihatdan tahlil qiladi hamda o‘nta she’riy shaklning (qasida, g‘azal, qit’a, ruboiy, masnaviy, tarje’, musammat, mastazod, mutavval, fard) ta‘rifini keltiradi.

Ikkinchchi fanda qofiya va radifning qavoidin bayon qilur. Ushbu qismda muallif qofiya hamda radifni nazariy jihatdan o‘rganadi, ushbu she’r unsurlarini chuqur va puxta sharhlab, qofiyaning 5 ta (mutavotir, mutarodif, mutarokib, mutadorik va mutakovis), keyinchalik fors olimlari qo‘sghan 3 ta (mutasoviy, mutarojih, mutazjiyd) – jami 8 ta turini tushuntirib beradi. Taroziy qofiya haqida shunday deydi: “Bilgilkim, majmui ulamo va fuzalo mazhabinda ahli tab‘g‘a qofiya ilmin bilmak muhimdir. Zeroki tab’ning natijasi she’rdur. Va she’rning asli qofiya”⁴¹².

Uchinchi fanda so‘zning badoye‘in va sanoye‘in zikr etar. Asarning ushbu qismida musulmon Sharqi mumtoz adabiyotida “ilmi badi” (badiiylik ilmi) deb nomlangan sohaga tegishli bo‘lgan she’riy san’atlar tadqiq qilinadi; jami 97 ta badiiy san’at sharhlanib, arab, fors va turkiy tilda yozilgan she’rlardan misollar keltiriladi.

To‘rtinchchi fanda she’rning taqt‘i’ va avzonin taqrir qilur. Risolaning ushbu qismida aruz bahrlari tadqiq qilinadi. Muallif aruzshunoslikka jiddiy e’tibor qaratadi va bu haqda shunday yozadi: “Bilgilkim, arab ulamosining ittifoqi birla bahr o‘n olti kelibtur. Ajam ulamosi so‘ngra oriy turub, yigirma to‘rt qilibturlar. Faammo bu zaif tiladikim, ul azizlarning paydo qilg‘on

⁴¹⁰ Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балога. – Тошкент: Хазина, 1996. – С.8.

⁴¹¹ Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балога. – Тошкент: Хазина, 1996. – С.31.

⁴¹² Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балога. – Тошкент: Хазина, 1996. – С.61.

bahrlarini qalamg‘a keltursa va turkiy iborat birla bayon aylab, har vazng‘a turkiy bayttin misol keltursa”⁴¹³.

Beshinchı fanda muammoning usul va arkonin tahrir etar. Asarning muammoga bag‘ishlangan beshinchı qismi esa bizgacha yetib kelmagan. Devin de Uisning yozishicha, “Funun ul-balogs‘a” risolasining qo‘lyozma nusxasidagi mazkur qism kuchli bo‘ronda yoqqan yomg‘irda ko‘plab qo‘lyozmalar qatori jiddiy shikastlangan”⁴¹⁴.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Shayx Ahmad Taroziyining “Funun ul-balogs‘a” asari XV asr turkiy mumtoz poetikasining nodir namunasi sanaladi. Avvalo, risolaning turkiy tilda bitilganligi eng ustuvor xususiyat hisoblanadi. Shu ma’noda “Funun ul-balogs‘a” o‘zidan keyin yaratilgan turkiydagi ko‘plab adabiy-nazariy manbalar uchun asos vazifasini o‘taydi. Ushbu risolada “ilmi segona” – ilmlar uchligi haqida so‘z yuritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. DeWeese D. The Predecessors of Nava‘i in the “Funun al-balaghah” of shaykh Ahmad b. Khudaydad Tarazi: a neglected source on Central Asian literary culture from the fifteenth century / Journal of Turkish studies, edited by Sinasi Tekin, 2005, volume 29. – P. 73-163.
- 2 .Д.Юсупова. Темурийлар давридаги арузга доир рисолаларнинг киёсий таҳлили: Филол. фан. докт. ... дисс. – Т., 2019.– 272 б.
3. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Тошкент: Хазина, 1996. – 212 б.

⁴¹³ Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. – Тошкент: Хазина, 1996. – С.146.

⁴¹⁴ Devin DeWEESE. “The Predecessors of Nava‘i in the “Funun al-balaghah” of shaykh Ahmad b. Khudaydad Tarazi: a neglected source on Central Asian literary culture from the fifteenth century” –“Journal of Turkish studies”, edited by Sinasi Tekin, published at Near Eastern Languages and Civilizations Harvard University – 2005, volume 29, P. 76.